



DUKKAKLI DON EKINLARINING MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO'JALIGIDAGI IQTISODIY AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

I.f.d., prof. Umarov Suxrob Rustamovich

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti*

ORCID: 0000-0005-3854-7696

Qudratov Alisher Alijanovich

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-3685-4475

Annotatsiya. Mazkur maqolada dukkakli don ekinlarining mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va ulardan olinadigan maxsulotlarni samarali yetishtirish va foydalanish, iqtisodiy hajmini hududlar kesimida yuqori darajaga ko'tarish, qishloq xo'jaligida yer – suv resurslari tanqis bo'lgan joylarni iqtisodiy holatini tahlil qilish va bunda hududlarda dukkakli o'simliklarni xosildorligi oshirish mavjud muammolar hamda kamchiliklar, bu borada amalga oshirilayotgan mamlakatimizning iqtisodiy siyosati yo'nalishlari hamda dastaklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jalik yerlari, dukkakli o'simliklar, samaradorligi, yerdan foydalanishni koefitsenti va iqtisodiy samaradorligi, yer monitoringi, kadastr, suvdan foydalanish koefitsenti, sug'orish tizimi

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ БОБОБОВЫХ КУЛЬТУР В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НАШЕЙ СТРАНЫ

д.э.н., проф. Умаров Сухроб Рустамович

*Национальный исследовательский университет «Ташкентский
институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»*

Кудратов Алишер Алиджанович

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматривается значение зернобобовых зерновых культур в сельском хозяйстве нашей страны и эффективное выращивание и использование полученной из них продукции, поднятие экономического объема на высокий уровень в регионе, анализ экономического положения мест, где находятся земля и водные ресурсы в сельском хозяйстве дефицитны, и при этом в регионах анализируются существующие проблемы и недостатки повышения продуктивности зернобобовых растений, направления и рычаги реализуемой в этом отношении экономической политики нашей страны.

Ключевые слова: земли сельскохозяйственного назначения, эффективность, коэффициент землепользования и экономическая эффективность, мониторинг земель, кадастр, коэффициент их использования, мониторинг земель.

ECONOMIC SIGNIFICANCE AND EFFICIENCY OF LEGUMES IN AGRICULTURE OF OUR COUNTRY

DSc, prof. Umarov Suxrob Rustamovich
National Research University "Tashkent Institute of
Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"
Kudratov Alisher Alijanovich
Gulistan State University

Annotation. *In this article, the importance of leguminous grain crops in the agriculture of our country and the effective cultivation and use of the products obtained from them, raising the economic volume to a high level in the region, analyzing the economic situation of places where land and water resources are scarce in agriculture, and in this case in the regions existing problems and shortcomings of increasing the productivity of leguminous plants, directions and levers of the economic policy of our country implemented in this regard are analyzed.*

Key words: *agricultural land, efficiency, legumes, coefficient of land use and economic efficiency, land monitoring, cadastre, coefficient of their use, land monitoring.*

Kirish.

Hozirgi zamonda ekalogiyaning tez fursatlarda keskin o'zgarishi, insoniyatning yildan yilga ko'payishi oqibatda oziq – ovqat havfsizligi va tuproq unimdorligi pasayib ketishi global muammolarga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'sib borayotgan aholini oziq – ovqatga va oqsil mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishni va tuproq unimdorligini oshirishda dukkakli don ekinlarining qanchalik axamyat kasb etayotganini anglatadi.

Yer yuzida dukkakli don ekinlaridan 135 mln gektar maydonga ekiladi. Dukkakli don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon xajmi jihatidan jaxonda soyadan (dunyo bo'yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o'rinda (25mln gektarga yaqin)ni egallab, uchinchi o'rinda no'xot (dunyoda jami 10 mln gektarga yaqin) turadi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 – yil 29-martdagi "2019 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va maxsulot yetishtirishning pragnoz xajmlari to'g'risida"gi 259-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda belgilanishicha asosiy ekin ya'ni kuzgi bug'doydan bo'shagan 1091630 ga maydonning 824350 gektariga yoki 75.5% ga takroriy ekin ekish rejalashtirilgan bo'lib shundan qariyb 284067 gektarga dukkakli ekinlar yoki moshni 20638 gektar maydonga ekilishi ko'zda tutilgan.

Dukkankli don ekinlarining halq xo'jaligidagi foydalanishga ko'ra to'rtta:

- oziq-ovqat (mosh, soya, loviya ko'k no'xat);
- yem xashak (xashaki, no'xat, xashaki dukkak, vika, lyupin va boshqalar);
- universal (buchoq, yasmiq);
- yashil o'g'it (alkoloidsiz lyupin) uchun ekiladigan guruhlariga bo'linadi.

Dukkankli don ekinlari ildizida azot to'plovchi o'simliklardir. Har gektar yerga 50 – 100 kg havodan azot to'plashi aniqlangan.

Dukkakli don ekinlari doni tarkibida 21 – 50% oqsil, somonida 8 – 14% oqsil, uglevodlar, A,PP,E,B guruhiga mansub vitaminlar, aminokislotalar mavjud.

Mosh doni tarkibida oqsil, azotsiz moddalar, vitaminlar, temir, kaliy, fosfor, magniy, kalsiy, selen va kam miqdorda natriy mavjud. Bu kabi dukkakli o'simliklar mamlakat iqtisodiyoti va axoli salomatligi uchun dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi (Mirziyoev, 2022).

Adabiyotlar sharhi.

Dunyo qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida dukkali o'simliklardan unumli va serhosil navlarni yaratish va ulardan oqilona foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va ularning samaradorligini baholash muammolari bo'yicha hozirda jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot

institutlari, oliy ta'lim muassasalari ilmiy markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. IAMO – Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (Germaniya), Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va ilmiy-texnika axboroti instituti (Xitoy), Food and Agriculture Organization (FAO), International Center for Agricultural Research in the Dry Areas (ICARDA), United Nations Development Programme (UNDP) (PROON), United States Agency for International Development (USAID), International Water Management Institute (IWMI), Rossiya melioratsiya muammolari ilmiy-tadqiqot instituti, Qishloq xo'jaligi suv ta'minoti va sug'orish tizimlari umumrossiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya), Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston) ana shular jumlasidandir.

Respublikamizda ham ushbu yo'nalishda yirik ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, xususan, mazkur tadqiqotlar Mamatov, Suvonova, Abdurashidova (2015) Dukkakli don ekinlarining ahamiyatini o'zining tadqiqotlarida O'zbekistonda dukkakli o'simliklar va uning muammolari haqida batafsil yoritgan bo'lsa, professor Madaliyev (2000) mosh va soyachilikni rivojlanishiga kata xissa qo'shgan, fikricha, dukkakli o'simliklar qishloq ho'jaligida qancha ko'p maydonga ekilsa yerning shuncha melorativ holati yaxshilanadi qolaversa yerning cho'llanish jarayoni sezilarli qisqaradi. Djurayev (2016) takidlashicha Tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mayda urug'li ekinlar kombinatsiyalash, O'zbekiston qishloq xo'jaligi tizimida ikkinchi ekin bo'sh yer maydonlariga samaradorligini oshiradi va oziq – ovqat dasturiga samaraliy ta'sir o'tkazishi takidlab o'tilgan..., Nozimov (2016) Holmurodovning ishlarida Qishloq hojaligidagi dala maydonlarida bo'sh yotdan unumsiz yerlardan dukkakli o'simliklarning suvga va sho'rga chidamli navlaridan nazorat ostida ekilsa qisqa fursatda yerning melorativ xolatini yaxshilanishiga olib kelishi alohida baholanadi. Boboqulov, Avazov (2022) "Globallashuv davrida ozoq – ovqat ta'minoti xavfsizligini ta'minlashning dolzarb vazifalari"dagi halqaro anjumandag tadqiqot ishlarida Qishloq ho'jaligida dukkakli o'simliklarni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha yangicha ilmiy-amaliy tavsiyalar bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qishloq xo'jaligida dukkakli o'simliklar va ulardan samaraliy foydalanish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tarif va narx shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruxlash, nisbiy va garmonik o'rtachalar aniqlash analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dukkakli don ekinlarining xosildorligi tuproqlarga ta'siri stress omillarga chidamliligi ularning navlariga bog'liq, O'zbekistonda no'xatning "Palvon", "Zumrad", "Umid", "Yulduz", "Halima", "Malxotra", "O'zbekstanskiy-32", "Lazzat", "Jaxongir", "K-295" ba "K-296" navlari yuqori xosildorligi, kasalliklar va tashqimuxitning noqulay sharoitlariga chidamliligi bardoshli bo'lgani uchun keng maydonlarda ekilmoqda (Djurayev, 2016).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish omillaridan biri sifatida dukkakli o'simliklar va melioratsiyaning o'rni yuqori bo'lib, tarmoq samaradorligini ta'minlashda birlamchi hamda asosiy bazis rolini o'taydi, chunki, birinchidan, yerlar meliorativ holatining talab darajasida bo'lmasligi tarmoqda potentsial samaradorlikni ta'minlash imkonini cheklasa, ikkinchidan, miqdor va sifat jihatdan me'yor talablariga javob bermaydigan mahsulot yetishtirishga olib keladi. Shu bois, respublikamizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 5-apreldagi PQ-113 son qaroriga asosan.

1 - jadval

Respublikada 2023-yil hosili uchun dukkakli maxsulotlar yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining prognoz hajmi⁷⁴

(tonnada)

T/r	Viloyatlar kesimida	Dukkakli	T/r	Viloyatlar kesimida	Dukkakli	T/r	Viloyatlar kesimida	Dukkakli
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	16 590		Navoiy viloyati	15 561	1	Toshkent viloyati	58 273
2	Andijon viloyati	25 454	7	Namangan viloyati	85 325	12	Farg'ona viloyati	32 632
3	Buxoro viloyati	10 453	8	Samarqand viloyati	65 801	13	Xorazm viloyati	8 849
4	Jizzax viloyati	114 648	9	Surxondaryo viloyati	70 464	14	Toshkent shahri	1 086
5	Qashqadaryo viloyati	58 797	10	Sirdaryo viloyati	51 693		Jami	615 625

Yuqorida jadvalda ko'rinib turibdiki 2023 yilda dukkakli maxsulotlarning eng yuqori xosildorlik ko'rsatkichi Jizzax viloyatiga eng past ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Ammo, yerlarning mavjud meliorativ holati, meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy asoslar va sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning mukammal emasligi qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha barqaror rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida yetarli shart-sharoitlarni yaratishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli agrar islohotlarni amalga oshirishda meliorativ tadbirlar va ularga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'larning iqtisodiy samaradorligini baholash va hisoblash usullarini takomillashtirish, uning qishloq xo'jaligi korxonalari daromadlarini ko'paytirishga ta'siri, meliorativ tadbirlarni moliyalashtirish manbalarini, uni rivojlantirishning yaqin kelajakka mo'ljallangan strategik yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan takliflar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Mamlakatimizda "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni qabul qilindi (Farmon, 2019). Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi, chunonchi;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

- yer va suv resurslari, o'rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish; shular jumlasidandir.

Maydonlarga ekilayotgan dukkakli don ekinlari xosilining miqdori, tuproq sharoitiga, naviga, turli stress omillariga bog'liq xolda turlichadir. Dukkakli don ekinlarini etishtirishdagi

⁷⁴ STAT_UZ saytidan olindi

muammolardan biri sho'rlangan sharoitda, qurg'oqchilik ta'sirida tuganaklarning xosil qilmasligidir.

Yerlarning ortiqcha sho'rlanishi sho'rlanmagan yerlarga nisbatan kam hosil beradi. Yuqori hosil olishda davlat va yerdan foydalanuvchilardan katta mehnat va yetarlicha mablag' talab etiladi. Shuning uchun yerdan to'g'ri, unumli foydalanib, doimo yerning hosildorligini oshirish, davlat siyosatining mintaqaviy, hududiy va mahalliy hamda mamlakat va har bir xo'jalikning iqtisodiy yagona tizimini rivojlantirish rejalarining bir bo'limi sifatida qarash lozim. Hozirgi vaqtda respublikaning 2170,7 ming gektardan ziyod sug'oriladigan yerlari turli darajada sho'rlangan bo'lib, shundan 17,5 ming ga - sho'ri yuviladigan yerlar, 1344,6 ming ga - kuchsiz sho'rlangan, 663,5 ming ga - o'rtacha sho'rlangan va 162,6 ming ga - kuchli sho'rlangan yerlarni tashkil etadi. Tuproqning unumdorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy jarayonlardan biri - suv va irrigatsiya eroziyasidir. Buni ko'rsatkichlarda izohlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda sho'rlangan yerlar sug'oriladigan yerlarning 50,7% (2170,7 ming ga.) ni tashkil etib, shundan kuchsiz sho'rlangan yerlar 31,4% ni, o'rtacha sho'rlangan yerlar -15,5% ni, kuchli sho'rlangan yerlar -3,8% ni tashkil etadi. Yaylovlar maydoni -20,8 mln ga, shundan -18,7 mln ga. sug'oriladigan, 1,6 mln. ga - degressiyaga uchragan yerlar, 15,1 mln. gektardan ziyod yerlar xo'jalik maqsadlarida foydalanilmaydi (Nozimov, 2016).

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi tarmog'ida dukkakli maxsulotlar va ulardan samarali foydalanish va mamlakatimiz bo'ylab takroriy ekin maydonlarini ko'paytirish yildan yilga qiyin masalaga aylanib bormoqda. Bunga asosiy sabablar deb yuqorida qayd etilgan salbiy holatlarning yuzaga kelishiga gidrotexnik inshootlar, kollektor-drenaj tarmoqlari va umuman irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanmaslik holatlari ham ma'lum darajada o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra ushbu tizimda oqsayotgan qadamlarni ilg'orlash uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida takroriy ekin maydonlarini kengaytirish va yer - suv resurslari va ulardan samaraliy foydalanish bo'yicha meliorativ tadbirlarni amalga oshiruvchi suv xo'jaligi tashkilotlari o'rtasida o'zaro tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar mexanizmini yetarli darajada shakllantirish;

- dukkakli ekinlar ekilishi tuproqlarning ozuqa moddalari bilan boyitilishiga va axolining oqsilli oziq ovqat maxsulotlari bilan taminlashga sabab bo'ladi. Uning uchun qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan oziq ovqat dasturi programmasi bir biri bilan integratsiya tizimini yanada optimallashtirish va uzoq muddatli istiqbol rejalarini ishlab chiqish kerak.

- qishloq xo'jaligi tizimining cho'llangan xududlarida suvsizlikka chidamli va serxosil dukkakli o'simliklarni (mosh, loviya, fasol) va boshqa turlaridan xorij tajribalari asosida ko'plab maydonlarga ekish, natijalari bo'yicha qisqa fursatli ma'lumotlarni berib borish..

- dukkakli ekinlar ekilishga moyil bo'lgan xududlarni yo'l xaritasi ishlab chiqilib aniqlash va maydonlarining unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirishdan iboratdir.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Boboqulov Z.R. Avazov M.M. (2022) "Globallashuv davrida ozoq - ovqat ta'minoti xavfsizligini ta'minlashning dolzarb vazifalari". Respublika miqyosidagi ilmiy - amaliy konfrensiyaning ilmiy maqolalar to'plami. Samarqand QK KMTM, - B. 213-215

Djurayev A.D. (2016) Tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mayda urug'li ekinlar kombinatsiyalashgan agrigat. Monografiya Qishloq xo'jaligi. - T.

Farmon (2019) *“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni.*

Idrisov H.A., Hayrullayev S.SH., Usmanova Sh.U. *Mosh navlarining ekish meyyorlarining xosil shakillanishiga ta‘siri. O‘zbekiston zamini, №4, 2019. B.47-48.*

Madaliyev A.A. (2000) *Agrosanoat sektorida boshqaruvni demokratlashtirish konsepsiyasi. 2-kitob Monografiya. – T.: – 144 b*

Mamatov B.S., Suvonova G.A., Abdurashidova X.F. (2015) *Dukkakli don ekinlarining ahamiyati// O‘zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda qishloq xo‘jalik fani yutuqlari va istiqbollari konfrensiya to‘plami. 2015 yil 20-21 noyabr, 1-qism.*

Mirziyoev Sh.M. (2022) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 20.12. 2022y.*

Nozimov A. (2016). *Holmurodovz Sh. O‘quv dala malaka amaliyoti. Qishloq xo‘jaligi. – T., – 30 b.;*